

Ranglar uyg'unligi



Rang dastgohli rangtasvirda asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Tasviriy kompozitsiya ustida ish boshlashdan oldin rassom asar ranglari va ularni bir-biriga uyg'un qilib moslashni o'ylab qo'yishi lozim. Bunda ranglar doirasi va ranglar uyg'unligi qoidalarini bilish yordam beradi.

Har xil badiiy texnikalarda kompozitsiya yaratilayotganda bir-biriga mos keladigan ranglarni tanlash kerak bo'ladi. Ishning estetik sifati ranglarning qanchalik to'g'ri tanlanganiga bog'liq. Shuni esda tutish kerakki, bir rangning vizual qabul qilinishiga uning atrofidagi ranglar ham ta'sir qiladi. Agar to'q va och ranglar yonma-yon bo'lsa, unda to'q rang yanada to'qroq, och rang esa yanada ochroq bo'lib ko'rindi.

Ranglar doirasida teng yonli uchburchak hosil qiluvchi har qanday uchta rangdan hamda kvadrat hosil qiluvchi istalgan to'rtta rangdan uyg'un ranglar kombinatsiyalarini tuzish mumkin.



1. Ranglar doirasida qarama-qarshi (kontrast) ranglar qayerda joylashgan?
2. Qanday ranglar o'xshash ranglar deyiladi?
3. Rang doirasida o'xshash ranglar qayerda joylashgan?



3

Kuzgi daraxtlar



To'rt mushukcha



4



9

10

11